

## BADIIY ADABIYOTDA OBRAZ VA UNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR

**Yo'ldoshxo'ja Solijonov**

*Farg'ona davlat universiteti professori, f.f.d.*

**Abdullayeva Mohidilxon**

*Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada biz yozuvchi Vali G'ofurovning "Vafodor" romani bosh qahramoni Rustamning Ikkinchi jahon urushi natijasida ko'zi ojiz bo'lib qolishi va uning bu jarayonga munosabatini tahlil qilamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Obraz, induviduallashgan umumlashma, muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi, xarakter, ko'zi ojizlik.*

Borliqdagi barcha narsa-hodisani (shu jumlada, insoniyatni ham) san'atkorona ko'z bilan ko'rish va san'atkorona qalb bilan idrok etish hamda shu asnda ularni estetik ideal asosida qayta yaratish obraz deyiladi. Taniqli adabiyotshunos olim D.Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslari" kitobida obraz tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: "Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksidir, Albatta, bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarni topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir"<sup>44</sup>. Qolaversa, olim mazkur asarda obrazning bir qancha xususiyatlariga to'xtalar ekan, avvalo, uning induviduallashgan umumlashma ekaniga urg'u beradi. Shundan keyin obrazning metaforiklik, assotsiatirlik, ko'p ma'nolilik kabi bir qator xususiyatlari haqida fikr yuritadi. Shuningdek, Hotam Umurov obraz so'zining slavyan tillariga tegishli ekanini aytadi: "Obraz so'zi raz chiziq so'zidan olingan bo'lib, raz so'zidan razit chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq va undan obrazit chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq so'zi yasalgan. Obrazitdan obraz umuman o'yilgan tasvir vujudga kelgan"<sup>45</sup>. Adabiyotshunoslikda ham obraz atamasi keng va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda borliqdagi barcha narsa-hodisa anglansa, tor ma'noda inson obrazi tushuniladi.

Ma'lumki, ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga turfa xil kulfatlar soldi. Ko'plab oilalarda kimdir otasidan, kimdir farzandidan, kimdir esa suyukli yoridan

<sup>44</sup>Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti,201890-bet.

<sup>45</sup>Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi nazariyasi, - Toshkent:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004,33-bet.



ayrildi. Qolaversa bir qancha jasur yigitlarimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdilar. Badiiy adabiyotda ushbu jarayon va holatlarni aks ettiruvchi ko'plab asarlar yaratildi. Yozuvchi Vali G'ofurovning "Vafodor" romani ana shunday asarlar sirasidan hisoblanadi.

Asarda Ikkinchi jahon urushi davriga oid mashaqqatlar, shu bilan birga nihoyatda ayanchli va ziddiyatli holatlar o'z aksini topgan. "Igna bilan yozilgan roman", - deya ta'rif olgan mazkur asar bosh qahramoni bo'lmish Rustam obrazi orqali adib chinakam mard, jasur, sofdil shu bilan birga g'ururli o'zbek yigitini tasvirlaydi.


Rustam barcha o'zbek va boshqa millat yigitlari qatori Ikkinchi jahon urushida qatnashadi. Ko'pchilik yigitlar qatori Rustam ham jarohat bilan qaytdi, ya'ni, u urushda ko'zidan ajraldi, ko'r bo'lib qoldi. Rustam obrazida ko'pchilik yigitlarga xos bo'lgan mardlik, sofdillik, yuksak g'urur mujassamlashgan holda ko'rinadi. U do'sti Fozilga qaraganda jismoniy nozikroq bo'lsa ham janglarga tayyorlov mashq maydolarida o'zini yo'qotmadi, balki do'stlari bilan barobar harakat qildi, intildi.

Asarda Rustam qat'iyatli va bir so'zli shaxs sifatida gavdalanadi. U o'limga tik bordi, qo'rqmadi va topshiriqning bajarilishiga muvaffaq bo'ldi. Pyotr Maksimovich tomonidan aniqlangan nemis polkovnigi qo'lidagi maxfiy hujjatni Rustam do'sti bilan birga qo'lga kiritdi, biroq ularning mashinasi yo'lda minaga uchradi. Mazkur falokatda faqatgina Rustam va Katya omon qolgan bo'lsa-da, ularning ikkalovlari ham jarohatlangan edi. Rustam yura olmayotgan va ko'ra olmayotgan bo'lsa ham topshiriqning tezroq bajarilishini Katyadan iltimos qildi. Shunday qilib, noiloj qolgan Katya Rustamni bir g'orda qoldirib, o'zi topshiriqni bajarishga kirishadi.

"Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabilar kiradi"<sup>46</sup>. "Jangchilar o'z boshliqlarining komandasi ostida darhol safga tizilib, tayinlangan yerga jo'nashdi. Ular sal yurgach, yana Frosya xolaga duch kelishdi. Frosya xola ko'chani bir chetida borardi. U bir qo'li bilan yelkasidagi og'ir qopli yukni ushlab, ikkinchi qo'lida og'ir savatini zo'rg'a ko'tarib borardi. Rustam Frosya xolaning yuki og'irligiga achinib: "O'rtoq leytenant, ruxsat eting, shu kampirning yukini biroz ko'tarishib boray", - dedi. Leytenant: "Darrov qadrdon bo'lib qolibsizlarda", - dedi-yu, ruxsat berdi. Rustam chopganicha borib, xolaning yelkasidagi qopni oldi. 23 yoshga kirib, bunday og'ir yukni ko'targan emas edi. Biroz yurgandan keyin yuk og'irlik qilib, qaddini yana ham egib qo'ydi. Oyog'laridan darmon ketib, tizzalarining ko'zi qaltirab

<sup>46</sup>Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 201899-bet.





ketayotgandek bo'ldi. "Yaxshiki, savatini ham so'raganimda bermagani",- dedi ichida. Yukni yerga qo'yib biroz dam olgisi keldi. Biroq Frosya xoladan nomus qildi. Biroz yurgandan keyin shunday terlab ketdiki, badanida shuncha suv borligiga o'zi ham hayron bo'ldi. Nam gimnastyorkasiga ham tegdi"<sup>47</sup>. Bundan ko'rinadiki, Rustam og'ir mehnatda toblanmagan bo'lsa-da, u g'ururli va sabr-bardoshli yigit. Yuk og'irligiga qaramay uni manzilga yetkazib borishi (garchi terga botib ketgan bo'lsa ham) Rustam xarakteridagi sabr va g'urning ifodasi ekanligini ko'rsatadi.

Asarda qahramon xarakterini ochishda badiiy psixologizmning o'rni muhimdir. "Badiiy psixologizm deyilganda personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari, gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi tushunilib, u mazkur vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi qator usul, vositalarni o'z ichiga oladi". Rustamlarning mashinasi minaga uchraydi. Ushbu halokat sababli Rustam ko'r bo'lib qoladi. Ko'rinadiki, o'limga tik boqqan Rustam ayni bu jarayonni qabul qila olmaydi. Badiiy psixologizm bevosita va bilvosita amalga oshiriladi. "Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'larini "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan (o'ziniki bo'lmagan avtor gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi"<sup>48</sup>. "Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so'zlari, yuz-ko'zi ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir"<sup>49</sup>. Yozuvchi Vali G'ofurov o'z qahramoni ruhiyatini asosan, bilvosita tasvir orqali ochib beradi. Rustam o'zini oynadan tashlab o'ldirmoqchi bo'ladi, biroq buni amalga oshirish uchun uning kuchi yetmaydi, ya'ni deraza tokchasiga chiqa olmaydi. Vaqtlar o'tib esa u Muhabbatga maktub yozadi. U xatda o'zini tiriklayin go'rga tushib qolgandek his qilayotganini aytadi. "Muhabbatxon, xoh xafa bo'ling, xoh bo'lmang ochiq yozishga majburman. Boshqa ilojim ham yo'q. Ko'p o'yladim, xafa bo'ldim, boshqa chora topa olmadim. Uzoq xat yozmasligimning sababi ham mana shu andisham bo'ldi men juda og'ir yaralanganman. Boshim go'rga kirmagan bo'lsa ham, go'riston qorong'uligi o'z qariga olgan, ya'ni, ikki ko'zim ko'rmas bo'lib qoldi. Bu ham yetmagandek bir oyog'im ham qattiq yaralagan, balki ham ishga yaramas. Vaqt kelarki, kesib tashlatishga majbur bo'larman. Muhabbat, taqdirga tan bermasdan ilojimiz qancha. Keling, men nogirondan endi umidingizni uzing. Jilla bo'lmasa, siz erkinroq yashang, tengingizni toping. Endi siz osmonda, men qorong'u o'radaman. Sevib, yaxshi umidlar bilan kutganingiz uchun sizga mingdan ming rahmat"<sup>50</sup>. Ma'lum

<sup>47</sup>.G'ofurov V. Vafodor, - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1973,34-bet

<sup>48</sup>Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti,2018103-bet

<sup>49</sup>Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti,2018106-bet

<sup>50</sup>G'ofurovV. Vafodor, - Toshkent: G'afurG'ulomnomidagiadabiyotvasan'atnashriyoti,1973, 223-bet




bo'ladiki bir qizning hayotini barbod qilishga Rustamning vijdoni yo'l qo'ymaydi. U o'zini Muhabbatga noloyiq hisoblaydi. Shu o'rinda aytish joizki, inson tug'ilishidanoq nogiron bo'lsa, u bu holatni osonroq qabul qiladi, ya'ni, taqdirga tan beradi, ko'nikadi. Biroq nogironlik hayot davomida orttirilsa-chi? Ehtimol buni tasavvur qilishning o'zi ham mushkul, albatta. Yozuvchi Rustamning ana shu jarayonlardagi ruhiy holatini aniq va ravshan tasvirlagan.

Xullas, yozuvchi Vali G'ofurov o'zining "Vafodor" romanida Ikkinchi jaxon urushi davrining front orti va front ichi voqeeligini yoritar ekan, adib obraz yaratishning qator vositalari orqali Rustamni tipiklashtiradi hamda uni induviduallashtirgan umumlashma sifatida maydonga chiqaradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018
2. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы, М., 1959, стр. 53
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004
4. G'ofurov V. Vafodor, - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973
5. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
6. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
7. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
8. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
9. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
10. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.





11. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.

12. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.

13. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lyrics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.

14. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.

15. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.

16. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.

17. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.

18. Oripova, Gulnoza, & Ibrohimova, Gulchiroy (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 251-255.

19. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.

20. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 221-226.

